NAZMIY SHAKLNING RUHIYAT TALQINIDAGI O‘RNI

Xaitova Yulduz O’ktamovna

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Mazkur maqolada zamonaviy she’riyatda ruhiyat masalasining o’rni va ahamiyati tahlilga tortilgan. Tahliliy maqolada jahon va rus she’riyatidagi ruhiyat bilan bog’liq jihatlar o’rganilib, o’zbek shoirlaridan Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatullo Termiziy she’riyatida ruhiy munosabat masalasi tahlil qilingan.

Bashariyat poetik tafakkuri hosilasi o‘laroq bunyod etilgan muhtasham badiiy adabiyot o‘z mohiyati bilan xalq hayoti, xalqona poetik tafakkur va xalq ijodkorligi bilan chambarchas bog‘liq hodisalar sirasiga kiradi. Iste’dodlar millionlab insonlar orasidan poetik nuqtayi nazardan, tarixiy zaruratga ko‘ra maydonga chiqadi. Millatning dardu quvonchlarini hamda asriy armonlarini o‘z ijodida badiiy aks ettiradi. Chinakam ma’nodagi so‘z san’atkori o‘z xalqining nihoyatda ulkan muammolarini obrazli tasvirlaydi; xalq dardini o‘z shaxsiy prizmasidan o‘tkazib his qiladi va aks ettiradi. Bunda adabiy janrlar va san’atlar muhim hodisa sanaladi. Shu bois Mixail Baxtin: “Janrlarning nazariyasi bizning zamonimizgacha ham Aristotel qoldirib ketgan nazariyaga ham hech qanday muhim yangilik qo‘sholgan emas. Uning “Poetika”si janrlar nazariyasining mustahkam poydevori bo‘lib qolaveradi. Faqat bu poydevor gohida shu qadar chuqurlikka o‘rnashadiki, uni ko‘rishning o‘zi amri mahol bo‘lib qoladi”[1] deydi. Forobiy “Poetika”ni sharhlar ekan: “Ayrim shoirlar tug‘ma qobiliyatli va she’r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo‘ladi va ular tashbeh va tamsilga layoqatli bo‘ladilar… Bir xil shoirlar she’r san’atidan yetarlicha xabardor bo‘lishavermaydi. Balki ular tug‘ma qobiliyatlarining yaxshiligi bilangina qanoat hosil qiladilar. Ular o‘zlarining iste’dod darajalariga ko‘ra ish tutadilar. Bunday shoirlar chinakam musaljis – mulohazakor shoirlardan sanalmaydilar. Chunki ularda she’r san’atini o‘zlashtirib olish uchun kamolot yetishmaydi va bu san’atda turg‘unlik bo‘lmaydi. Kimki unday odamning she’rini ko‘rib, u qobiliyatli odam ekan, deb o‘ylagan bo‘lsa, bu shuning uchunki, uning fe’l-atvorida shoirlarga xos bo‘lgan turq-ko‘rinish mavjudligidangina shunday mulohazaga kelingan. Yo bo‘lmasa, bu xil odamlar chinakamiga shoirlar san’atini egallagan bo‘lishadi. Hatto, she’r ijodiga xos bo‘lgan xususiyatlardan birortasi ham, u qaysi she’r turiga aloqador bo‘lmasin, baribir, bu qonun-qoidalar undan qochib qutulolmaydi. Ular she’riyat san’atida qo‘llanadigan tashbeh va tamsillarni juda ham mahorat bilan ishlatadilar. Bu xil shoirlar chindan ham “qobiliyatli shoirlar” deyishga sazovordirlar. Ana shu ikki tabaqa shoirlar (tug‘ma qobiliyatli shoir hamda she’r yozish qonun-qoidalarini o‘rganib, o‘zlashtirishda uquvli shoir – Yu.X.) ga va ularning fe’llariga taqlid qiluvchilar bo‘ladi. Bular o‘sha ikki tabaqa shoirlar yo‘li – ijodini yodlaydilar. Ular o‘zlarida tug‘ma shoirlik tabiati bo‘lmagani holda, she’riy san’at qonun-qoidalaridan xabardor bo‘lib turib, tashbeh – o‘xshatish va tamsil – metaforalarning ketidan yuradilar. Yo‘ldan adashadigan va toyadigan shoirlarning ko‘pchiligi xuddi mana shu tabaqa shoirlar ichidan chiqadi”,[2] deydi.

Badiiy adabiyotda ruhiyat masalasini o‘rganishning dastlabki bosqichlarida bevosita mahalliy adabiyot vakillari e’tibor markazida turadi. Ma'lum yozuvchilar ijodidagi ruhiyat

[1] Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskiye stati. – M., Xudoj. lit., 1986. – S.396.

[2] Ulug‘ov A. Arastu anglatgan adabiyot. *“Jahon adabiyoti” jurnali, 2018. 2-3-sonlar.*

muammosining o‘ziga xos xususiyatlari yangi davr adabiyotdagi o‘rnini tahlil qilish va unga yaqin bo‘lgan boshqa tushunchalar bilan aniqlanadi.

Lirik asarda uslub masalasi birlamchi hodisa sanaladi. Bir guruh ijodkorlarni to‘plagan va ijodiy uyushmalarni shakllantirgan adabiy muhit ma’lum yo‘nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Bu borada Arastuning nazariy qarashlari va undan keyingi avlod vakillarining ilmiy yondashuvlari misol bo‘la oladi. Bunday yo‘nalishlarga misol sifatida rus poetik olamidagi 1890-yillarda paydo bo‘lgan simvolizm adabiy oqimini ko‘rsatish mumkin. Simvolizm rus badiiy adabiyotining ilk yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Symbolistlar o‘z poetik matnlarida mistik va mavhum tasvirlarni yaratishga intildilar. Bu yangi asr boshida Rossiya imperiyasida mazhablarning faol tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois Lev Tolstoy: “Insoniyat hayoti faqat diniy ongni chuqur o‘zlashtirib olish oqibatidagina mukammallashishi mumkin. Diniy ong esa odamlarni o‘zaro mustahkam bog‘laydigan yagona ibtidodir. Odamlarning diniy ongni o‘zlashtirishi inson ma’naviy faoliyatining hamma qirralari tomonidan amalga oshiriladi. Bu faoliyatning qirralaridan biri san’atdir. San’atning qismlaridan biri lirika bo‘lib, ehtimolki, u boshqalari orasida eng ta’sirchanidir”[3], deydi. Bu yo‘nalish ko‘plab ijodkorlarni jalb qildi, ilhom manbai va mavjud qarashlarni qayta ko‘rib chiqish uchun sabab bo‘ldi[4]. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, mualliflarning asarlarini to‘ldirgan tanazzul kayfiyati va tez o‘zgarishlarni oldindan bilish simvolist shoirlarning asarlarida bevosita aks etgan.

Yigirmanchi yuz yillik boshlariga kelib, ijodiy turg‘unlik tufayli ramziylik inqirozi yuzaga keldi va yangi she’riy oqimlar paydo bo‘la boshladi. Biroq, asosiy simvolist shoirlar o‘zlariga va ko‘plab izdoshlariga tanish bo‘lgan uslub doirasida shakllanishda davom etdilar. Rus ilmidagi simvolizmning yorqin vakillarini tanqidchi va yozuvchi Dmitriy Merejkovskiy, Valeriy Bryusov va Aleksandr Bloklar misolida ko‘rish mumkin. She’riyatga aniq tasvirlar va qadimgi davrdan havolalar qaytarilishi akmeizm kabi oqimlarning paydo bo‘lishi bilan ham ajralib turdi. Bu taxminan 1910-yildan beri paydo bo‘lgan va ramziy ma’noga qarshi muvozanat vazifasini o‘tagan. Bu harakat va uning yorqin vakili Nikolay Gumilyov ijodiy yo‘li tufayli tilning soddaligi va hayotga bo‘lgan muhabbat she’riyatga do‘na boshladi. Shu bilan birga, yosh shoirlarning eski adabiy me’yorlar, kanonlar va urf-odatlardan butunlay xalos bo‘lish istagi futurizmning paydo bo‘lishi va shakllanishiga hissa qo‘shdi. Ma’lumki, bu hodisa Italiyadan kelgan. Unda g‘oyalar targ‘ibotchisi Marinetti manifestda o‘z qarashlarini e’lon qilgan. Avangardlar harakati rus tilining imkoniyatlari bilan tajribalarning boshlanish omillarini yuzaga chiqardi. Futuristlar yangi she’riy o‘lchamlarni ishlab chiqdi. O‘ziga xos neologizmlarni yaratdilar va an’anaviy adabiyotning qiyofasini o‘zgartirdilar. Shunday qilib, rus she’riy madaniyatida dunyoga iste’dodli shoirlarni bergan va davr she’riyatining evolyutsiyasiga ta’sir ko‘rsatgan yangi yo‘nalishlarni taqdim etdi.

XIX-XX asrlarning boshlarida rus adabiyotida, aksariyat Yevropa adabiyotlarida bo‘lgani kabi, she’riyatda namoyon bo‘lgan modernistik oqim yetakchi rol o‘ynaydi. Bu oqimning o‘ziga xos xususiyati shundaki, XIX asr oxirida modernizmning umumiy tamoyillari asosida ijodiy izlanishlar olib borgan holda, XX asr boshlarida yozuvchilar davrning dolzarb muammolariga nisbatan o‘z uslub omillarini belgilashi lozim edi. Modernizm ko‘plab arboblarining taqdiri va ijodiga ta’sir qildi. Ba’zi ijodkorlar inqilobiy voqealarni o‘z xalqining fojiasi va o‘zlarining dardi

[3] Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: “Ma’naviyat”, 2010. – 190-bet

[4] Майя Лаошвили. Разнообразие творческих индивидуальностей в поэзии серебряного века сочинение. https://obrazovanie-gid.ru/sochineniya/raznoobrazie-tvorcheskih-individualnostej-v-poezii-serebryanogo-veka-sochinenie.html

deb bilishgan. Boshqalari bu falokatning muqarrarligini tushunishgan va inson va jamiyatni axloqiy tozalashga chaqirishgan. Yana boshqalari esa o‘z ishlarini sotsialistik inqilob g‘oyalari bilan ochiqchasiga bog‘lashgan (V. Mayakovskiy). Bu davr yutuqlarini ortiqcha baholash qiyin. Chunki hozirgi paytda biron bir Yevropa adabiyoti rus adabiyoti kabi bunday fojiani boshdan kechirmagan. 20-30-yillarda deyarli barcha novator rus shoirlari umumiy adabiy jarayondan chetlashtirildi: ular M.Gumilyov, I.Mandelstamni jismonan yo‘q qildilar. Ba’zilarini emigratsiyaga majbur qildilar; V.Mayakovskiy, M.Tsvetaeva o‘z joniga qasd qilishga majbur bo‘ldilar; B. Pasternak, A.Axmatova asarlarini chop etmay qo‘ydilar. Rus she’riyatining rivojlanish tarixida uchta yo‘nalish namoyon bo‘ldi: simvolizm, akmeizm, futurizm. Bu davr XIX asrning 80-90-yillarida badiiy oqim sifatida shakllangan rus simvolizmining adabiy maydonda paydo bo‘lishi bilan boshlangan edi. Rus simvolizmining o‘ziga xos xususiyati uning falsafiyligida. Ammo rus siymbolistlari keyingi avlodining (V.Bryusov) ramziylik nuqtayi nazaridan izlanishlari emas, balki shakl sohasidagi estetik qarashlari bilan ajralib turadi. V.Bryusov turli she’riy janrlar, shakllar bilan tajriba o‘tkazgan. Symbolist poetikasida tsikl muhim ahamiyatga ega. Bryusov va Blokning deyarli barcha she’rlari tsikllarga bog‘liq edi. Tsikl (doira) siymbolistlar dunyoqarashining xususiyatlarini, ularning falsafasini to‘liq ochib berishga imkon berdi. Unga ko‘ra dunyoni na aql, na his-tuyg‘ular bilan tushunish mumkin. Haqiqiy va ideal dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni faqat ijodiy tushunchaning maxsus holatidagi yaratuvchi shoir tushunishi mumkin. Ushbu aloqa belgi sifatida uzatiladi. Tsiklda belgilar birlashtiriladi, bir-birini to‘ldiradi, shuning uchun ular murakkab munosabatlarga kirishadi. Shundan keyingina ularning ma’nosini tushunish mumkin.

Lirikada pafos birlamchi hodisa sanaladi. Bu tushuncha “pafos” yunoncha atama (“pathos”) bo‘lib, “tuyg‘u, ehtiros” ma’nolarini anglatadi. Pafos iste’dod, ruhiy ko‘tarinlikdagi o‘tli kechinma, ehtirosli tuyg‘ular bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta’kidlashicha, badiiy asarning “asosiy estetik belgi”si adabiyotshunoslikda “pafos” deb yuritiladi[5]. Bevosita pafos badiiy asardagi fikr va tuyg‘uning bir butun hodisa ekanini tashkil etadi. Aristotel pafos deganda, asar yozishga undovchi omilni tushungan. V.G.Belinskiyda pafos – bu “g‘oya-ishtiyoq” degan ma’noda ishlatiladi. Pafosning barcha turlarini ijtimoiy xarakterlar va konfliktlar yuzaga keltiradi. Taniqli rus adabiyotshunosi G.N.Pospelov pafosga “Yozuvchining o‘z qahramonlariga g‘oyaviy-emotsional munosabati va ularga bergan bahosi”[6], deya izoh bergan bo‘lsa, yana bir adabiyotshunos M.B.Xrapchenko “Asarning umumiy konsepsiyasi”[7], degan to‘xtamga keladi. O‘zbek adabiyotshunosi B.Sarimsoqov pafosni “Ijodkorning butun asarga singib ketgan ehtirosi”[8] tarzida talqin qiladi. Bu ehtiros zamirida xalqning tafakkur tarzi, og‘zaki ijodi, dardu alamlari bilan bog‘liq nuqtalar, tabiiyki, ushbu mavzu yuzasidan atroflicha muhokama yurtishga imkon beradi.

[5] Қуронов Д. “Адабиётшуносликка кириш”. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004, 139-бет.

[6] Поспелов. Г. Н. Проблемы исторического развитие литературы. –М.: Просвещение. 1972, -с 12-13

[7] Храпченко М. Б. Творческая индивидуалност писателя и развитие литературы. – Москва: Советский писатель, 1970, - с 26.

[8] Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи. 1979, 228-бет

Pafos atamasiga adabiyotshunoslik lug‘atlari va nazariyasiga oid kitoblarda turlicha ta’rif beriladi. – Pafos so‘zi ilmiy istiloh sifatida dastlab ritorika fanida ishlatila boshlangan[9]. Pafos yunoncha so‘zdan kelib chiqib, - his, ehtiros ma‘nosini anglatadi. Ijodkorning o‘zi tasvirlayotgan voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabati, avtor emotsionnaligi. Gegelga ko‘ra, u san‘atning o‘zagi, “- san’at saltanatining asosi sifatida talqin qilinadi”[10]. Adabiy istiloh sifatida pafos muammosini Aristoteldan keyin XVIII asrga kelib Gegel chuqur tadqiq etadi va uni – san’at saltanatining mohiyati sifatida ko‘radi. Gegelning – “Ruh fenomenalogiyasi” asarida nafaqat san’atdagi, balki - har qanday insonning real hayotidagi pafos to‘g‘risida qimmatli fikrlarni uchratish mumkin. Shulardan bir parcha: - Insoniy va ilohiy qonunning harakati o‘z zaruriyatining ifodasini individlarda topadi, ularda umumiylik pafos sifatida namoyon bo‘ladi[11]. Pafos tushunchasi o‘zi paydo bo‘lgan ilk davrlarda ham badiiy faoliyatdagi pafosni anglatgan emas. Uni istifoda etgan ko‘pdan-ko‘p faylasuflar, estetiklar, adabiyotshunoslar va boshqa soha vakillari uni faqat badiiy ijodga taalluqli hodisa yoki xususiyat sifatida tushunmaganlar. Biz pafos tushunchasining o‘sha ilk ma‘nosini tiriltirish yoki saqlab qolish tarafdorimiz va shunga harakat qilgan mualliflarning qarashlariga ergashishni ma’qul deb bilamiz[12]. Estetik mohiyatga ega bo‘lsa, shaxs mulohazasi pafos hisoblanadi. Shuningdek, - Estetik mohiyatga ega bo‘lgan va yuksak estetik ideallarni o‘zida aks ettirgan har qanday konkret hissiy hodisa, har qanday konkret hissiy mazmun bu pafosdir. Shundan kelib chiqqan holda pafos faqat tayyor badiiy asarni yoki badiiy ijod mahsulinigina emas, balki yaratish va qabul qilish jarayonlarini ham, umuman estetik idrok olamini ham qamrab oladi.

Pafos so‘z san‘atida faqat ta‘sir etishdan tashqari fikr va his birligi, badiiy asar g‘oyasi, yozuvchi ijodining umumiy yo‘nalishi va butun asariga singib ketgan ehtirosi kabi ma‘no kategoriyalariga ham ega va bu so‘z san’atidagi pafosda to‘liq ro‘yobga chiqadi. Shuningdek, lirikada ham u tushunchaga bo‘ysundirgan obrazlilik vositasida fikr va his birligini ifoda etsa, tushunchani obrazlilik vositasida poetik g‘oya - badiiy asar g‘oyasi darajasiga ko‘taradi. Uning hissiy-emotsional ta‘sirini oshiradi. Jo‘shqinlik, tushkunlik, fojeaviylik kabi ifoda yo‘sinida yozuvchining voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabatini ham yuzaga chiqaradi.

Asrlar chorrahasida o‘zbek she’riyati qayta tug‘ilishni boshdan kechirdi. Ko‘plab adabiy oqimlar paydo bo‘ldi. Bu Yevropa va rus madaniyatidagi inqirozga javob edi. Realizm asta-sekin o‘z mavqeyini yo‘qotib, yosh avlod yozuvchilariga yo‘l ochdi. Bu davrning asosiy yo‘nalishlari xilma-xil bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bunda ruhiyat birlamchi hodisa bo‘lgan. Unga ko‘ra dunyoni o‘rganishning asosiy vositasi ramz hisoblangan. Bu inson tushunchasi chegaralaridan tashqarida nima borligini ko‘rsatadi. Ijodkorlar atrofdagi voqelikni ongsiz-intuitiv idrok etishga e’tibor qaratdilar. Ular o‘quvchi asarda yashiringan maxfiy ma’noni taxmin qilishi uchun ishora edi.

Lirik asarda mohiyat qoida tariqasida, bir muncha vaqt voqealarda ishtirok etadigan belgilar hisoblanadi. Agar belgilar mavjud bo‘lsa, unda biz hali ham ularning mohiyati emasligini his qilamiz. Lirik asar asrlar davomida taraqqiy etganidek, xalq lirik qo‘shiqlari singari, ba’zi bir shaxs qalbining kayfiyati, tajribasi, hissiyotlari, ichki subyektiv holatini

[9] Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T. 1996, -23-b.
[10] Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. –T.:Akademnashr, 2013. -220-b
[11] Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.1996,-34-b.
[12] Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -32-33-b

yetkazishga intiladi. Ushbu shaxsning aksariyati muallif-shoirdir. Ammo biz uning fikrlari va his-tuyg‘ulariga yaqin bo‘lsak, ularni ajrata olsak, demak, ular umuman odamga xos xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. Garchi ular deyarli tushunarsiz va so‘zlab bo‘lmaydigan holatda bo‘lsa ham; ammo shoir ularni tushuna oladi va so‘z bilan aniq ifoda eta oladi.

Lirik asarni tahlil qilayotganda, kimga bag‘ishlanganiga e’tibor qaratish juda muhim emas. Lekin ma’lum bir voqea uchun yaratilgan she’r nafaqat ma’lum bir shaxsga va nafaqat odamlarga, shoirning zamondoshlariga, balki ko‘plab keyingi avlodlarning o‘quvchilariga qanday murojaat qilishini ko‘rsatish kerak.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatiga o‘ziga xos xalqona ohangni jo qilgan ijodkor, o‘zga bir ohangni takrorlamaydigan shoirlar sirasiga kiruvchi qalam sohibi, shubhasiz, Shafoat Rahmatullo Termiziydir. Shoirni o‘z diyorining tirik timsoli deysiz. Shu ma’noda Shafoat Rahmatullo Termiziy ijodi ham o‘zbek adabiyotida tom ma’noda Surxon ovozi bo‘lib yangraydi. Shu diyor vakillaridan biri Ra’no Uzoqova ham o‘ziga xos, muhabbatni tarannum etuvchi poetik olami bilan adabiyot eshigini qoqqan. Ularning lirikasida bir-biriga uyg‘unlik sezilmasada, har ikkisining ijodida inson omili birlamchi hodisa hisoblanadi.

Shafoat Rahmatullo Termiziy “Janub shamoli” (1981), “Umid ostonasi” (1988), “Gulob” (1992), “Ozod so‘z” (2003, Saylanma) asarlari nashr etilgan. Bundan tashqari, “Musiqa uslubiyoti”, “Musiqa alifbosi” (1991-92), “Boshlang‘ich musiqa ta’limi” (2003) kabi risolalar ham yozgan. Ra’no Uzoqovaning ham “Mardona yuring”, “Subhidamda uchgan qaldirg‘och” she’riy to‘plamlari, “Malohat”, “Sarviqad”, “Makr va muhabbat”, “Gulandom”, “Tun sirlari”, “Orzu” kabi dostonlar va balladalar hamda “Mehri”, “Rashk”, “Zafarning hukmi”, “Uchrashuv”, “Qasos”, “O‘g‘irlangan baxt” kabi nasriy asarlari chop etilgan.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg‘unligi muammosi Shafoat Rahmatulla Termiziy va Ra’no Uzoqova asarlari misolida ham namoyon bo‘ladi. Ularning ijodiga bo‘lgan ko‘plab munosabatlarda shoirlarning mohiyat haqidagi ham lug‘aviy, ham nazariy qarashlari fonida siqiq ifodalangandek. So‘z qudrati ifodasida ma’no eshiklarining ochilishi Yaratganga bog‘liq. Agar O‘zi ko‘ngilga yorug‘lik va fayzu barakot solmasa, ulug‘ ma’nolarga erishib bo‘lmaydi. Ulug‘ ma’nolar ruhiyat botinida yetilib, ruhiyat parvozidan tug‘iladi. Alisher Navoiy aytmoqchi, “Avval ma’no eshiklarini ko‘nglimga ochib ber, bu ilk bosqich, so‘ng ularni zabt etish, ya’ni ularni so‘zga evirishni nasib et, deb so‘ramoqda shoir Yaratgandan”[13]. Ko‘plab tadqiqotlar olamni, xususan, badiiy asar olamini anglash va tadqiq qilish chek-chegaralarini kengaytiradi. Zero, Platon ratsional tafakkur doirasini tark etib – bunday tafakkur uning nazdida borliqni to‘laqonli anglash va anglatishga ojizlik qiladi – anglashning prinsipial boshqa turi bo‘lmish she’riyat tili, obrazlar tiliga murojaat qilgan edi. Kvantfizika asoschilaridan biri V.Geyzenberg shu haqda so‘z yuritib, yozadi: “Poetik obrazlar, ehtimol, psixologlar arxetiplar deb ataydigan tafakkurning g‘ayrishuuriy shakllari bilan bog‘liqdir. Ular kuchli emotsional mazmun bilan to‘yingan bo‘lib, olamning ichki strukturasini o‘ziga xos tarzda in’ikos ettiradilar”[14]. Olamning botinida esa, o‘z navbatida, dunyoda mavjud hodisalar, xususan, inson aqli va ruhiyati mahsuli bo‘lmish badiiy asarlar, ulardagi qism va obrazlarda qat’iy struktura mavjudligini ko‘rsatib beradi.

[13] Милиев С “Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси” Филол.фан. докт. Дисс. Тошкент: 2020. – Б. 23.

[14] Гейзенберг В. Шаги за горизонт. – М., 1987. – С. 122.

Shafoat Rahmatulla Termiziy 1981-yili nashrdan chiqqan ilk kitobini bejiz “Janub shamoli” deb nomlamagan. U shamoldek uchqir shoir edi. Bo‘g‘ilgan davralarga shamol olib kirar edi. She’r o‘qiyotganda ko‘zlarida, yuzlarida, ohanglarida bir nimalar shamoldek esardi. Uning ijodi bilan yaqindan tanishar ekansiz, o‘zbekning o‘ziga xos baxshichilik ohanglari-yu bir-biridan go‘zal qochirimlari hayratga soladi:

Oq o‘tovdan otilib, so‘lqillab chiqsang sen qiz,

Ot boshini burganman, bahona ichmoq qimiz.

Ibo bilan o‘tovga boshlading yuzi qirmiz,

To qimiz simirguncha qozonda qilding “jiz-biz”.

Ketay desam qo‘ymading yangam bo‘lib o‘pkalab,

Kayvoni momom bo‘lib, ulayverding gapga-gap.

Oqsoqol bobom bo‘lib, deding “bolam kepsan zap”,

Suluv qiz ko‘zlaring-la qo‘yding har dam erkalab.

Ey, mening mehribonim – o‘zbegim, onajonim,

Mehringga tortiq desang, beraman mana, jonim[15].

Bu kabi xalqchil she’riy namunalar bugun o‘zbek adabiyotining noyob durdonalari, desak mubolag‘a bo‘lmas. Shafoat Rahmatullo Termiziyning yuqoridagi misralari “O‘zbegim, onajonim” qasidasidan. Oshiq qalbning ma’shuqasiga samimiy muhabbati-yu o‘zbek xalqining nechog‘li mehmondo‘stligi, kelin qizlarning pazandaligi, momolarimiz-u bobolarimizning qaynoq tafti, oqibatliligi, soddaligi, eng muhimi, Surxonga xos qadriyatlar ushbu she’rga ko‘chib o‘tib qolgandek taassurot qoldiradi kishida. She’rdagi ohang ham novatorona. Bunda muallif ruhiyati va ohang uyg‘unligi o‘ziga xos. Muallif uchun san’atning eng muhim xususiyati asarning emotsionalligi hisoblanadi. U kamida ikki manbadan – ijodkorning ijod obyektiga aniq va ehtimol ko‘zda tutilgan olamga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi. “Ijodkorning voqelikka bo‘lgan emotsional munosabati, – deb yozadi, Xrapchenko – uning dunyo ehtiyojlari va tashvishlari, mukammallikka bo‘lgan intilishlari bilan chambarchas bog‘liqdir”[16]. Asar emotsional jihatdan boyligining ikkinchi manbai – bu odamlarning turli his-tuyg‘ularining ifodasidir. Birinchi manba san’atning tasviriy turlarida, ikkinchi manba esa san’atning ifodali turlarida ustunlik qiladi.

Shoirning yana bir she’rida Islom olamida Surxon elidan yetishib chiqqan olti nomdor muhaddis imomlardan biri Imom Termiziy hazratlariga murojaat qilinadi. Unda shunday misralar bor:

Merosni toptash ham madaniyatmi,

Ajdodni toptash ham ma’naviyatmi,

[15] Раҳматулло. Ш. Озод сўз. Янги аср авлоди, 2003. – Б. 11.

[16] Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 86.

Yolg‘onni maqtash ham aynul hayotmi?

Men izga qaytaman – o‘zga qaytaman,

Yo, Imom Termiziy, sizga qaytaman[17].

She’rda bir millatning boshidan kechirganlari, o‘tgan asrning zulmatli kunlari, o‘z tarixiy siymolarini soxtalashtirish, tarixiy obidalari-yu muqaddas qadamjolaridan omborxona sifatida foydalanish kabi yaqin o‘tmishning achchiq haqiqatlari mahoratli tarzda ochib berilgan. Shoir she’rlarida goh Vatanni, goh tabiatni, haqni, haqiqatni kuylar ekan, ijod ahli xususida ham shunday misralar bitadi:

Shoir o‘tdi, kunlari yo‘q, shomlari yo‘q,

Haqdan bo‘lak kamlari yo‘q, komlari yo‘q,

Ishqdan bo‘lak g‘amlari yo‘q, jomlari yo‘q,

So‘zdan bo‘lak shonlari yo‘q, nomlari yo‘q.

Yo‘q-yo‘q, yo‘qlik Shafoatga doir o‘tdi,

O, o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi[18].

Ijod ahli borki, so‘z bilan tirik. “U ichidagi hissiyotlari, kechinmalari, og‘riqlari va baxtli masrur kunlarini so‘zlar orqali ifoda etadi. Shoir ijodidan bunday bir-biridan go‘zal misralarni ko‘plab keltirish mumkin, uning Vatan haqidagi go‘zal qasidalari xalq orasida qo‘shiqqa aylanib ketgan”[19]. Shoir bevosita she’rda so‘zning naqadar qudratli ekanini va bu qudrat haqiqat yo‘lida bo‘lsa, umrboqiy ijod mahsullari adabiyot atalmish bog‘da xazon bo‘lmasligini chiroyli misollar vositasida ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskiye stati. – M., Xudoj. lit., 1986. – S.396.
2. Гейзенберг В. Шаги за горизонт. – М., 1987. – С. 122.
3. Ulug‘ov A. Arastu anglatgan adabiyot. *“Jahon adabiyoti” jurnali, 2018. 2-3-sonlar.*
4. Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: “Ma’naviyat”, 2010. – 190-bet
5. Майя Лаошвили. Разнообразие творческих индивидуальностей в поэзии серебряного века сочинение. https://obrazovanie-gid.ru/sochineniya/raznoobrazie-tvorcheskih-individualnostej-v-poezii-serebryanogo-veka-sochinenie.html
6. Милиев С “Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси” Филол.фан. докт. Дисс. Тошкент: 2020. – Б. 23.
7. Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T. 1996, -23-b
8. Раҳматулло. Ш. Озод сўз. Янги аср авлоди, 2003. – Б. 11.

[17] Раҳматулло. Ш. Озод сўз. Янги аср авлоди, 2003. – Б. 35.
[18] Раҳматулло. Ш. Озод сўз. Янги аср авлоди, 2003. – Б. 20.
[19] To‘xtashev Sh. Surxon eliday bag‘rikeng shoir. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2023-yil 21-iyul №28 (4739)

9. Қуронов Д. “Адабиётшуносликка кириш”. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004, 139-бет.
10. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T.:Akademnashr, 2013. -220-b
11. Поспелов. Г. Н. Проблемы исторического развитие литературы. –М.: Просвещение. 1972, -с 12-13
12. To‘xtashev Sh. Surxon eliday bag‘rikeng shoir. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2023-yil 21-iyul №28 (4739)
13. Храпченко М. Б. Творческая индивидуалност писателя и развитие литературы. – Москва: Советский писатель, 1970, - с 26.
14. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 86.
15. Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи. 1979, 228-бет